

Aliyev Ixtiyor To‘xtamurodovich
Olmaliq shahar Soliq inspeksiyasi boshlig‘i

Annotatsiya Ushbu maqolada, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari, xususan, soliq imtiyozlari orqali uni qo‘llab-quvvatlash masalalari tahlil etilgan, amalda bo‘lgan soliq siyosati va ekologik yo‘nalishdagi imtiyozlar tizimi o‘rganilib, ularning yashil loyihalarni moliyalashtirishdagi samaradorligi o‘rganilib, qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig‘idan imtiyozga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar, ularga qo‘llanilgan imtiyoz summalari hamda kelgusi davr uchun prognozlar tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni soliq imtiyozlari orqali moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, soliq, imtiyoz, soliq imtiyozlari, ekologik soliq, pigu solig‘i, moliyalashtirish mexanizmlari, ekologik siyosat, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlaydi, balki iqtisodiy o‘rish, ijtimoiy farovonlik va global iqlim o‘zgarishi muammolariga qarshi kurashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonda soliq imtiyozlari yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning samarali mexanizmi sifatida muhim o‘rin tutadi. Soliq imtiyozlari orqali davlat ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish, investorlarni jalb qilish va yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega.

Ammo soliq imtiyozlarini qo‘llashda bir qator muammolar, jumladan, ularning samaradorligi, maqsadli yo‘naltirilishi va iqtisodiyotga uzoq muddatli ta‘siri kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida soliq imtiyozlarining roli, ularni optimallashtirish va xalqaro tajribadan foydalanish masalalari chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanib, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarga rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar berilishi belgilangan. Bu borada AQSh va Hindiston

tajribasiga muvofiq jismoniy shaxslarga 3 yillik soliq imtiyozlaridan foydalanishi ham inobatga olingan. Shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan qo‘shimcha xarajat qilinganda foyda solig‘idan imtiyoz berilishida AQSh (2032-yilgacha) va Hindiston (2030-yilgacha) tajribasi inobatga olingan.

Eng samarali ekologik soliq islohotlari 1990-yillarda va 2000-yillarning boshlarida Buyuk Britaniya va Shvetsiyada amalga oshirilgan. Masalan, 1996 yilda Buyuk Britaniyada chiqindilarni qayta ishlashning barqaror usullarini joriy etishni rag‘batlantirish asosiy maqsadi bo‘lgan rasmiy chiqindilarni qayta ishlash maydonlarida chiqindilarni yo‘q qilish uchun soliq joriy etildi. Shvetsiya tajribasi birinchi bo‘lib ekologik soliq islohotida byudjet (fiskal) betarafligining oqilona ustuvor yo‘nalishini ko‘rsatdi.

Yevropa atrof-muhit agentligi 2012-yilda Yevropa hukumatlari ekologik soliqlarni strategik tarzda amalga oshirish va keyinchalik ishlab chiqarilgan daromadlarni iqtisodiyotga qayta taqsimlash orqali daromad solig‘ini bir vaqtning o‘zida kamaytirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va ifloslanishni yumshatish imkoniyatiga ega ekanligini ta’kidladi[4]. 2020 yil oktyabr oyida Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) blog postida sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan soliq siyosati yashil rag‘batlantirish sa’y-harakatlarini kuchaytirishga xizmat qilishini va bir vaqtning o‘zida an’anaviy rag‘batlantirish yondashuvi shakllarini dekarbonizatsiya siyosatining asosiy maqsadi bilan uyg‘unlashtirishini ta’kidladi[5].

Ekologik soliqlar vaqti-vaqti bilan Pigu soliqlari deb ham talqin etiladi. Ushbu termin ingliz professori A.C. Pigou (1920) nomiga atalgan. Pigu solig‘i salbiy tashqi ta’sirlarni keltirib chiqaradigan tijorat yoki ishlab chiqarish korxonalariga solinadi. Yashil iqtisodiyot nuqtai nazaridan tashqi ta’sirlar bozor narxlarida hisobga olinmagan xarajatlar yoki foyda sifatida tavsiflanadi. Ijobiy tashqi ta’sirlar foydalarni bildiradi, salbiy tashqi ta’sirlar esa "ijtimoiy xarajatlar" deb atalib, ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarining ekologik oqibatlariga sabab bo‘ladi[2]. Iqtisodchi olimlar amerikalik V.Baumol va Shvetsiyalik V.Oates larning xulosalariga ko‘ra, “Pigu yondashuviga ko‘ra, birlik soliqlari yoki subsidiyalar tashqi ta’sirlarni keltirib chiqaradigan faoliyatga qo‘yiladi, soliq darajasi muayyan faoliyat natijasida yetkazilgan marjinal sof zararga tenglashtiriladi. Buning mantiqiy sababi shundaki, agar ushbu soliqlar (yoki subsidiyalar) to‘g‘ri aniqlansa, ular ijtimoiy xarajatlarni shaxsiy xarajatlar bilan moslashtirib, tashqi ta’sirlar bilan bog‘liq salbiy ta’sirlarni yumshatib, Pareto-samarali faoliyat darajasiga olib keladi”[3].

Bugungi kunda mamlakatimizda energiya samaradorligini oshirish maqsadida soliq qonunchiligiga ko‘ra qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatgan jismoniy shaxslarga mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berilishi belgilangan [1].

O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar va ularga qo‘llanilgan imtiyoz summalarining o‘zgarish tendensiyalarini quyidagi 1-jadval ma’lumotlari orqali ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig‘idan imtiyozga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar va ularga qo‘llanilgan imtiyoz summolari hamda kelgusi davr uchun prognozlar [6] (mln. so‘m).

T/ p	Hudud nomi	2024 yil		2024 yil		2025 yil prog- noz	2026 yil prog- noz	2027 yil undiriladiga n soliq prognozi
				mol- mulk solig‘i	yer solig‘i			
		soni	summa	summa	summa	summa	summa	summa
Respublika bo‘yicha jami		242	233,4	73,5	159,9	323,6	451,7	634,8
1	Qoraqalpog‘iston Res.	11	9,9	3,4	6,4	11,9	14,3	17,1
2	Andijon viloyati	12	7,2	2,3	4,9	9,4	12,2	15,8
3	Buxoro viloyati	23	27,4	7,2	20,2	38,4	53,7	75,2
4	Jizzax viloyati	90	91,3	25,7	65,7	137,0	205,4	308,1
5	Qashqadaryo viloyati	18	15,6	4,2	11,4	18,7	22,5	27,0
6	Navoiy viloyati	10	7,1	2,0	5,1	9,2	12,0	15,6
7	Namangan viloyati	15	7,8	2,4	5,5	10,9	15,3	21,4
8	Samarqand viloyati	5	5,6	1,5	4,1	8,4	12,6	18,9
9	Surxondaryo viloyati	4	2,4	0,9	1,5	2,9	3,5	4,1
10	Sirdaryo viloyati	1	0,9	0,1	0,8	1,2	1,5	2,0
11	Toshkent viloyati	18	21,1	10,8	10,3	29,5	41,4	57,9
12	Farg‘ona viloyati	1	0,8	0,2	0,6	1,2	1,8	2,7
13	Xorazm viloyati	24	23,4	6,0	17,5	28,1	33,7	40,4
14	Toshkent shahri	10	13,0	6,9	6,1	16,9	22,0	28,6

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tahlil qilinayotgan davrda mamlakat miqyosida qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar 242 nafarni tashkil etib, umumiy soliq imtiyozi summasi 233,4 mln. so'mni tashkil etgan. Soliq imtiyozi yer solig'i bo'yicha 159,9 mln. so'm (68,5 foiz)ni, mol-mulk solig'i bo'yicha esa 73,5 mln. so'm (31,5 foiz)ni tashkil qilmoqda. Mahalliy soliqlar bo'yicha imtiyozlar prognozi

1-jadval ma'lumotlari orqali faqatgina budjet, ayniqsa mahalliy budjet daromadlari bo'yicha yo'qotishlar emas balki, 3 yillik soliq imtiyozi berilishi natijasida aholini energiya manbalari bilan yetarlicha ta'minlash va keyinchalik mahalliy budjet daromadlari mustaqilligiga erishish maqsad qilingan. Dastlabki uch yil davomida soliq imtiyozidan foydalangan soliq to'lovchilardan 2027-yilda 634,8 mln. so'm mahalliy soliqlar ya'ni mol-mulk va yer solig'i undirilishi prognoz qilingan.

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar va ularga qo'llanilgan imtiyoz summalari tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu tahliliy ma'lumotlarni quyidagi (2-jadval) orqali ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'idan imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar va ularga qo'llanilgan imtiyoz summalari hamda kelgusi davr uchun prognozlar [6] (mln. so'm)

T/ p	Hudud nomi	Yuridik shaxslarga		Shundan		2025 yil prog- noz	2026 yil prog- noz	2027 yil undiriladig an soliq prognozi
				mol- mulk solig'i	yer solig'i			
		soni	summ a	summ a	summ a	summa	summa a	summa
	Respublika bo'yicha	151	3 131,7	2140,2	991,5	7174,1	16442, 2	37700,6
1	Qoraqalpog'iston Res.	3	38,9	22,4	16,5	89,5	205,8	473,3
2	Andijon	9	446,9	351,2	95,7	983,2	2163,0	4758,6
3	Buxoro	13	210,9	198,4	12,5	506,2	1214,8	2915,5
4	Jizzax	7	98,4	61,1	37,3	226,3	520,5	1197,2

5	Qashqadaryo	5	30,2	29,1	1,1	72,5	174,0	417,5
6	Navoiy	7	33,8	17,8	16	77,7	178,8	411,2
7	Namangan	7	46,7	25,8	20,9	107,4	247,0	568,2
8	Samarqand	2	59,1	41,3	17,8	130,0	286,0	629,3
9	Surxondaryo	3	28,5	17,4	11,1	62,7	137,9	303,5
10	Sirdaryo	2	54,9	13	41,9	126,3	290,4	668,0
11	Toshkent	15	222,7	183,2	39,5	512,2	1178,1	2709,6
12	Farg'ona	5	1,1	1	0,1	2,4	5,3	11,7
13	Xorazm	4	6,8	5,5	1,3	16,3	39,2	94,0
14	Toshkent sh.	60	1 823,0	1150,1	672,9	4192,9	9643,7	22180,4
15	Yirik soliq to'lovchi	9	29,8	22,9	6,9	68,5	157,6	362,6

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tahlil qilinayotgan davrda mamlakat miqyosida qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar 143 tani tashkil etib, umumiy soliq imtiyozi summasi 2 984,3 mln. so'mni tashkil etgan. Soliq imtiyozi yer solig'i bo'yicha 925,2 mln. so'm (31,0 foiz)ni, mol-mulk solig'i bo'yicha esa 2 059,1 mln. so'm (69,0 foiz)ni tashkil qilmoqda.

2-jadvaldan ma'lumki, 2025-yil uchun soliq tushumlari 7 174,1 mln. so'mni, 2026-yil uchun esa 16 442,2 mln. so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu o'sish (2025 → 2026: 129%) soliq solinadigan bazaning kengayishi, iqtisodiy faollikning oshishi va soliq imtiyozlarining samarali taqdim etilishi bilan bog'liq. 2024-yil ijrosi soliq tushumlarining barqarorligini, 2025-2026 yillar prognozlarini esa sezilarli o'sishni ko'rsatadi. 2027-yilda esa soliq tushumlari (37 700,6 mln. so'm) to'liq budjetga yo'naltiriladi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatini yaratadi. Soliq imtiyozlari yuridik shaxslarning faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu esa kelajakda soliq tushumlarining yanada oshishiga olib keladi.

Umuman olganda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni soliq imtiyozlari orqali moliyalashtirish, mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Soliq imtiyozlari orqali qayta tiklanadigan energiya manbalariga, ekologik toza texnologiyalarga va energiya samaradorligiga sarmoya kiritishni rag'batlantirish, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Bu esa nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Yashil

iqtisodiyotga qaratilgan soliq imtiyozlari tizimini rivojlantirish, O‘zbekistonda ekologik infrastrukturani yaxshilash va iqtisodiy o‘shishni barqarorlashtirishga olib keladi.

Shundan kelib chiqqan holda 2025 yil 1-yanvardan boshlab Soliq kodeksining tegishli moddalariga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va mol-mulk solig‘i bo‘yicha “qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvati quyidagicha bo‘lgan alohida turuvchi qurilmalari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari va qurilmalari [1]:

100 kVtgacha — qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan e‘tiboran uch yil muddatga, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam bo‘lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to‘plash tizimi mavjud bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatilganda esa — ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e‘tiboran o‘n yil muddatga;

100 kVt va undan ko‘proq — ular foydalanishga topshirilgan oydan e‘tiboran o‘n yil muddatga” tarzidagi o‘zgartirish kiritildi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik toza texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish, nafaqat atrof-muhitni saqlashga, balki iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq imtiyozlari yashil iqtisodiyotga quyidagi ijobiy ta‘sirlarni ko‘rsatishi mumkin:

- soliq imtiyozlari, ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya va ekologik toza texnologiyalarga sarmoya kiritishni rag‘batlantiradi. Bu, o‘z navbatida, texnologik yangilanishlarni va yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi;

- yashil iqtisodiyotni rivojlantirish soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotda yangi sohalarning o‘shishiga olib keladi. Bu sohalarda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy o‘shish ta‘minlanadi;

- soliq imtiyozlari ekologik toza ishlab chiqarish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritishni rag‘batlantirish orqali atrof-muhitni himoya qilishda sezilarli o‘zgarishlarni ta‘minlaydi. Bu iqtisodiyotda karbon izini kamaytirish va tabiatni saqlashga yordam beradi;

- yashil iqtisodiyotga qaratilgan soliq imtiyozlari yangi ekologik texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu texnologiyalar, masalan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiya samaradorligini oshirish kabi sohalarda innovatsiyalarni tezlashtiradi;

- yashil moliyalashtirishning muhim rag‘batlantiruvchi omili bu soliq instrumenti hisoblanadi. Yashil soliqlar yoki ekologik soliqlar atrof-muhitning buzilishi yoki zararlanishiga sabab bo‘luvchi faoliyat uchun olinadigan yig‘imlardir. Ushbu soliqlar

"Ifloslovchi to'laydi" tamoyiliga asoslanadi, bunda ifloslanish uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar tegishli xarajatlarni o'z zimmlariga oladilar va shu bilan bu xarajatlarni o'zlarining tovarlari va xizmatlari narxlariga kiritadilar.

Umuman olganda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni soliq imtiyozlari orqali moliyalashtirish, mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Soliq imtiyozlari orqali qayta tiklanadigan energiya manbalariga, ekologik toza texnologiyalarga va energiya samaradorligiga sarmoya kiritishni rag'batlantirish, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Bu esa nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyotga qaratilgan soliq imtiyozlari tizimini rivojlantirish, O'zbekistonda ekologik infrastrukturani yaxshilash va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. T.: Adolat-2025 y.
2. Pigou A. C. The Economics of Welfare. 3th ed. London : Macmillan, 1920. URL: <http://pombo.free.fr/pigou1920.pdf>
3. William J. Baumol and Wallace E. The Use of Standards and Prices for Protection of the Environment. Source: The Swedish Journal of Economics, Vol. 73, No. 1, Environmental Economics, (Mar., 1971), pp. 42-54 <https://www.sfu.ca/~wainwrig/Econ400/documents/Baumol-Oates-SwedishEconJnl71.pdf>
4. EEA (2012) Environmental tax reform: increasing individual incomes and boosting innovation, <https://www.eea.europa.eu/highlights/environmental-tax-reform-increasing-individual>
5. OECD (2020) Green budgeting and tax policy tools to support a green recovery, <https://www.oecd.org/coronavirus/policyresponses/green-budgeting-and-tax-policy-tools-to-support-a-green-recovery-bd02ea23/>
6. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari (www.soliq.uz).